



**PEDAGOGIK JARAYONIDAGI MUAMMOLI
VAZIYATLAR VA ULARNI BARTARAF
ETISHDA O'QITUVCHINING KASBIY
MAHORATI**

Shonazarov Jamol Umirzoqovich,
Xalqaro innovatsion universiteti
"Pedagogika" kafedrasi v.b.dotsenti.

**PROBLEM SITUATIONS IN THE
PEDAGOGICAL PROCESS AND THE
TEACHER'S PROFESSIONAL SKILLS IN
ELIMINATING THEM**

Shonazarov Jamol Umirzakovich,
International Innovation University
Acting Associate Professor of the Department of
"Pedagogy".

**ПРОБЛЕМНЫЕ СИТУАЦИИ В
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ И
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ
УЧИТЕЛЯ В ИХ УСТРАНЕНИИ**

Шоназаров Жамол Умирзакович,
Международный инновационный университет
и.о. доцента кафедры "Педагогика".



E-mail: shonazarov77@mail.ru

Orcid: 0009-0003-3812-3997

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461559>

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsi uning kasbiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va kasbiy sifatlarining muhim jihatlariga oid masalalar bayon etilgan. Shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida muammolar, pedagogik vaziyatlar, ularning shakllanish sabablari, oldini olish yo'llari va ushbu muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda o'qituvchining kasbiy mahorati, ijodkorligi hamda muammoli holatlarni muvaffaqiyatli hal etishiga oid pedagogik munosabatlar tizimi keltirib o'tilgan. Bunda keltirilgan mauhokamali masalalar va tegishli ma'lumotlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayoni va pedagogik faoliyatni mohirlik bilan boshqarish yo'llarini egallashlari uchun muhim tavsiya bo'lishi mumkin

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, pedagog shaxsi, o'quv-tarbiya jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, mahorat, shaxsiy sifatlar, axloqiy fazilatlar, pedagogik tajriba, pedagogik-psixologik bilimlar, pedagogik nizo, pedagogik qobiliyat, kasbiy shakllanish, pedagogik ijodkorlik.

Abstrakt: This article describes the content of pedagogical activity, the pedagogical personality, its professional formation, stages of development and important aspects of professional qualities.

Also, problems in the educational process, pedagogical situations, the causes of their formation, ways to prevent them, and the system of pedagogical relations related to the teacher's professional skills, creativity and successful resolution of problematic situations in eliminating these problematic situations are presented. The presented technical issues and relevant information can be important recommendations for future teachers to master the process of professional formation and skillfully manage pedagogical activities.

Keywords: pedagogical activity, pedagogic personality, educational process, professional training, skills, personal qualities, moral qualities, pedagogical experience, pedagogical-



psychological knowledge, pedagogical conflict, pedagogical skills, professional formation, pedagogical creativity.

Аннотация: В данной статье описаны важные аспекты содержания педагогической деятельности, профессионального становления педагога, этапы развития и профессиональных качеств.

Также упоминаются проблемы, педагогические ситуации, причины их формирования, способы профилактики, профессиональные навыки, креативность педагога в устранении этих проблемных ситуаций, а также система педагогических отношений, связанных с успешным решением проблемных ситуаций. Представленные здесь актуальные вопросы и актуальная информация могут стать важной рекомендацией будущим учителям для освоения процесса профессионального становления и умелого управления педагогической деятельностью.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, педагогическая личность, образовательный процесс, профессиональная подготовка, умения, личностные качества, нравственные добродетели, педагогический опыт, педагогико-психологические знания, педагогический конфликт, педагогическое умение, профессиональное становление, педагогическое творчество.

KIRISH.

Jamiyatda yosh avlodni muayyan darajada o'qimishli, axloqan pok, aqlan yetuk, jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishida o'qituvchi (mutaxassis)larning xizmatlari beqiyosdir. Pedagogik jarayon ijodkori sifatida har bir o'qituvchi o'zining kasbiy burchi va faoliyatini mas'uliyatli bajarar ekan, avvalombor uning o'zi ibrat-namuna sifatida mahoratli va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan barkamol inson bo'lishi zarur. O'qituvchi mahorati, unga qo'yilgan talablar va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish haqida «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va tegishli meyoriy hujjatlarda ham keltirilgan.

O'qituvchi faoliyati, uning kasbiy mahorati va kasbiy nufuzini oshirish masalalari, shuningdek, kasbiy sifatlarining muhim jihatlarini o'rganish mustaqillik yillarida pedagogika, psixologiya fanlarining ustuvor vazifasiga aylandi. Dastlab Yevropada o'qituvchi va uning professional sifatлари to'g'risidagi muammolar pedagog olimlar Ya.A.Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotstsi, A. Disterverg, K.D. Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topdi. Shuningdek, keyingi yillarda mazkur muammo bo'yicha bir qancha pedagog va psixolog olimlar Sh.G'.Saparov, D.N.Arziqulov, S.Lashin, M.Y.Maxkamova, N.D.Maxmudova, G.I. Maxmutova, G.N.Najmiddinova, R.U.Nurjonova, D.SH.Olimova, M.Ochilov, B.X.Raximov, M.Quronov, N.M.O'rinova, B.Xodjajev, S.Usmonov, T.G'afforova, M.G Davletshin, E.G'. G'oziyev, V.M. Karimova, B.R.Qodirov, G'.B.Shoumarov, A.M. Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoyev, G.Berdiyev, S.X.Djalilova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.H.Murataliyeva, Sh.A.Eshmetov, K.B.Qodirov, E.A.Xidirov va boshqalar tomonidan olib borilayotgan pedagogik-psixologik tadqiqotlar diqqatga sazovordir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Bugungi kun o'qituvchisi o'z o'quvchilarini tayyor bilim qabul qiluvchi sifatida emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga undashi, ijodkorlikka tayyorlashi, maslahatchi, ko'makchi bo'lib yo'l ko'rsatishi uning kasbiy bilimdonligi va mahoratidan darak beradi.

Ushbu tadqiqotlar natijasi va o'rganishlar tahliliga ko'ra zamonaviy o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari uning kasbiy tayyorgarligi va mehnat faoliyati davomida uzluksiz rivojlanib, takomillashib borishi ilmiylik, uzviylik, izchillik va tizimlilik, ta'lim-tarbiyaning birligi qoidalariga amal qilingan holda izohlab berildi. Mazkur mavzuni yoritishda tahliliy, eksperiment, kuzatish, faoliyat mahsulini tahlil etish, test metodlari, muammoli o'qitish, interfaol metodlar asosida pedagogik jarayondagi muammolar, nizoli vaziyatlar mohiyatan o'rganilib tahlil etilgan. Jumladan, hozirgi ta'lim jarayonida zamonaviy pedagog shaxsiga, kasbiga xos xislat va fazilatlarning mujassam bo'lishi, ulardan o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'rinli, meyorida foydalana olish zarurligi M.G.Davletshinning "Umumiy psixologiya" darsligida, o'quv jarayonida yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlarni hal etishga oid Omonov H.T., N.X.Xo'jayevlarning pedagogik tadqiqotlariga ko'ra talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, muammolarni hal qilishda tayyor standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qilishga undash, talabalar ichki hissiyotlarini yuzaga chiqarib, ularni mantiqiy fikrlashga chorlash, ularni solishtirish, xususiy analitik fikr yuritishga o'rgatish, ularning intellektual, zukkolik xislatlarini shakllantirish va ma'lum yo'nalishda yanada yuqori darajada rivojlantirish maqsadida muammoli uslubdan foydalaniladi deb ta'kidlangan [5].

X.Hudoyqulov (2012) fikriga ko'ra talabalarga pedogogdan tashqari atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ba'zan sezilmaydigan, ba'zan esa har tomonlama bir necha yo'nalishda ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va talabaning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi [6]. Shuningdek, N.Boymurodovning "Amaliy psixologiya" nomli o'quv qo'llanmasida "O'qituvchining vazifasi talabaga yaqinroq bo'lish, ularning haqiqiy ustoziga aylanishdan iboratligi, u hamkorlik pedagogikasiga tayangan holda ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga erisha olishi keltirilgan [1].

NATIJARLAR.

O'zbekistonning kelajagi, uning taraqqiyoti va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma'naviy etukligiga bog'liq ekan, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va ta'lim-tarbiyaga innovatsiyalarni jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaratilgan. Hukumatimiz bu borada mamlakat hayotida ta'lim-tarbiyaning o'rni va ahamiyatini yuqori baholab, tahlil etgan holda bu tizimga katta moliyaviy sarmoyalar kiritilishi ijobiy natijalar



bermoqda. Ushbu amaliy ishlar va maxsus dasturlarga muvofiq barkamol shaxsni tarbiyalash va kamol toptirish mamlakatimizda ta'lim hodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifani yuklaydi va bu ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi-talabalarni o'qitishga yangicha yondashishni taqazo etadi [7]. Shu nuqtai nazardan tadqiqotlar va yaratilgan pedagogik adabiyotlarda o'qituvchi xususiyatlariga uning shaxsiy va kasbiy xislatlari, kasbiy bilimi, shaxsiy pedagogik uddaburonligi, tashkilotchilik malakalari, kommunikativ va gnostik malakalari hamda ijodiy xislatlari zarurat ekanligini ko'rsatib o'tadi. Shu bilan bir qatorda, olimning ta'kidlashicha, o'qituvchi o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yuksak pedagogik mahorat va pedagogik qobiliyatga ega bo'lishi lozimdir. Olimlarning mulohazalariga ko'ra, bulardan tashqari yana o'qituvchining ezgu maqsad sari intilishi, mehnatsevarligi, qat'iyligi, kamtarligi, haqgo'yligi, sadoqatli bo'lishi, namunali xulqi, yurish turishi, o'zini tuta bilishi, tashqi qiyofasi, xullas, uning milliy va umuminsoniy axloq meyorlariga mos keluvchi sifat hamda fazilatlarini egallashi uning o'z kasbiy faoliyatiga tayyorligi va o'quv-tarbiya jarayoni samarasini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini e'tirof etadi. Shu kabi o'rganishlar, tahliliy xulosalar va shaxsiy tadqiqotlarim natijasiga ko'ra bugungi kunda ilg'or pedagogik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lg'usi o'qituvchilarning auditoriyadan tashqari faoliyatlarida bilimlarni o'zlashtirishni takomillashtirish yo'l-yo'riqlari; talabalarning umumkasbiy fanlar asoslarini o'rganishga yo'naltirilgan qiziqishlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi, qobiliyati va dunyoqarashiga xos xususiyatlarni e'tiborga olgan holda, ularga zarur maslahat va tavsiyalar berib borish hamda amaliyot orqali pedagogik faoliyatga tayyorlash yosh o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy sifatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish sohasida olib borilgan tadqiqotlarda bo'lg'usi pedagoqlarni kasbiy tayyorlash, ularda pedagog shaxsi va faoliyatiga xos zaruriy sifat va fazilatlarining shakllanishida ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy xususiyatlar muhim o'rin egallashi e'tirof etiladi. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim [2].

O'qituvchilik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biron muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarni yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ulani hal qila olish yo'llarini qidira topa bilishlarida ifodalanadi [3]. Shu boisdan o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi bevosita o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlik faoliyatiga, ayniqsa bu jarayonning samaradorligi esa o'qituvchi mas'uliyatiga bevosita boqliq.



O'quv-tarbiya jarayonida shunday holatlar ham bo'ladiki, unda ziddiyatlarning asosiy sababchisi o'qituvchi bo'lib qoladi: (1-rasm)



MUNOZARA.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib fikrlash faoliyatini tashkil etishi o'qituvchi uchun yuksak talablar qo'yadi, lekin uning roli kamaymaydi, aksincha murakkablashadi, o'quvchi-talabalarning aqliy taraqqiyoti uchun bevosita rahbarlik qilish zaruriyati vujudga keladi. O'qituvchining kasbiy muhim sifatlari va pedagogik faoliyatini tashkil etish masalalariga gumanizm nuqtai nazaridan yondashgan olimlar A.Maslou, K.Rodjerslarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, o'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarini to'liq egallagan bo'lishi lozim. Bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladilar, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. Ta'lim jarayonida ushbu o'qituvchilar butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, ular e'tiborini, kechinmalari va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladilar



[4]. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatli ekanligin inobatga olib uning shaxsiy sifatлари asosan o'qitish (dars berish) va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish (dars berish) va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir.

O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'tkazish jarayonida bevosita ayrim nizolar yuzaga kelishi, sodir bo'lishi mumkin, ya'ni bu nizolar ta'lim jarayoniga xos shakllanadigan muammolardir. Ushbu nizo va muammolar o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida, yoki o'quvchilar jamoasida sodir bo'lishi mumkin. O'quvchilar jamoasida nizolarning shakllanish sabablari, ularni o'rganish, oldini olish yo'llari va jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish ham bevosita o'qituvchi shaxsi, uning kasbiy mahoratiga bog'liq. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi davrida o'quv-tarbiya jarayonlariga xos nizolarni tushunish ko'nikmasini o'stirish, shuningdek, nizolarning sabablarini o'rganish va bartaraf etish yoki boshqarishning samarali vositalarini topa bilish mahoratlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'qituvchining o'z ustida ishlashi, o'qish, ilmiy izlanish va ijodiy mehnati zamirida kasbiy kompetentligi rivojlanib boradi. O'qituvchi kompetensiyasi ta'lim-tarbiya jarayonidagi ziddiyatlarni oqilona hal qilishga undaydi. Pedagogik jarayonda yuzaga keladigan ziddiyatlar jarayonida paydo bo'ladigan kuchli emotsiyalar oqibatida tafakkur jarayonlari sekinlashadi, uning doirasi torayadi, psixikaning eng sodda qatlamlari (instinktlar, impulsiv xatti-harakatlar) ishga tushadi. Aynan mahoratli pedagog bunday holatlarda aqliy mulohaza orqali ziddiyatlarni hal qilishning yagona yo'li sifatida bu jarayondagi tashabbuskorlikni o'z qo'lingizga olib, ziddiyatga ongli tarzda kirish orqali uni boshqarish mumkin. Shuni esda tutish lozimki, doimiy tarzda ziddiyatga kirish sog'liq uchun zararlidir. Ziddiyatni qanday qilib boshqarish mumkin? Buning uchun kishidan o'z emotsiyalarini nazorat qilish, qalbaki sabablardan haqiqiy sabablarni ajratib olish, ziddiyatni lokallashtirish, faqat himoyaga diqqatni qaratishdan qochish, tashabbuskorlikni o'z qo'lida ushlab turish talab etiladi.

Bo'lajak yosh mutaxassis pedagogik faoliyat sohasida o'zini qanchalik ko'proq, to'laroq va ongli ravishda namoyon etsa, shu sohada ko'proq natijaga erishadi. Ikkinchi tomondan, yosh o'qituvchi o'zini kasbiy faoliyat sohasida namoyon etish uchun qanchalik jadal kurashsa, kasbiy shakllanishda, kasbiy yetuklikda shunchalik yuqori pog'onaga ko'tariladi [8]. Shuning uchun ham pedagoglarni kasbiy tayyorgarligi va kasbiy rivjlanishi asosan uch bosqichda: tayyorgarlik bosqichi, asosiy bosqich va yakunlovchi bosqichlarda amalga oshadi. Tayyorgarlik bosqichida shaxs o'zligini aniqlaydi, ya'ni o'zini namoyon qilish ehtiyojini anglaydi, o'z nuqtai nazarini, atrof-borliqqa munosabatini belgilaydi, faoliyati maqsadlarini oydinlashtiradi, jamoaning rasmiy va norasmiy tuzilmalarida o'zining o'rni va rolini aniqlaydi, o'z xatti-harakatlari, xulq-odobi, ko'zlagan maqsadlarini ro'yobga chiqarishning vosita va usullarini asoslab, belgilab oladi. Asosiy bosqich shaxsning o'zini namoyon qilish maqsadlarini amalga oshirish jarayonidir. Yakunlovchi



bosqichda-shaxs o'zini namoyon etish sohasida erishgan natijalari baholanadi, qiyinchiliklarning sabablari aniqlanadi. O'z o'rnini to'g'ri belgilab olish - o'zini namoyon etishning muhim bosqichi hisoblanib, uning mazmuni va xarakterini belgilaydi, erishilgan natija ham shunga yarasha bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish jizki, bo'lg'usi pedagogning kasbiy shakllanishi oliy ta'limdan boshlanar ekan, unga shu davr maboynida nazariy bilimlar bilan birga amaliyotda uchrab turadigan pedagogik nizolar, o'quvchilar jamoasidagi muammoli vaziyatlar haqida ham amaliy ko'nikmalar berish va ularni kasbiy tayyorgaligini oshirishda ijodkorlikka alohida e'tibor berish va qiziqtirish zarur. Chunki bo'lajak pedagog o'z sohasiga qanchalik qiziqsa, intilsa, ijodkorlik hamisha hamkori bo'lsagina o'z sohasida o'zini to'laroq namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2008 yil. 308-bet
2. Ishmuhamedov R., Abdulkodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T.: “Iste'dod, 2008. 4 - bet.
3. G'affarova T. Boshlang'ich ta'lim samaradorligigp erishishning pedagogik shart-sharoitlari. - T.: “Mashhur-pres”, 2017, 42- bet.
4. Karl Rogers, Jerome Freyberg. Freedom to study. ISBN: 5-89357-099-5, 0-02-403121-6. Year of the edition: 2002. 58 - bet.
5. Omonov H.T., Xo'jayev N.X. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat», -Toshkent, 2007 yil.- 127 - bet.
6. Hudoyqulov X.J., Kenjaboyev A.J. Pedagogik mahorat asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: “Navro'z”, 2012. -17 b.
7. Shonazarov J.U. Ma'naviy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. Ilmiy-metodologik jurnal, Nukus-2024 yil. №2 son, 187-190 betlar.
8. Shonazarov J.U. Ta'lim jarayonidagi muammoli vaziyatlarda o'qituvchi mahorati, texnikasi va muloqot madaniyati uyg'unligi. “Maktab o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish samaradorligini oshirish istiqbollari: tajriba va tahlil” Xalqaro onlayn, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2024-yil 22-noyabr. 375-378 betlar.